

## I. YALPI HUDUDIIY MAHSULOT







Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2021- yilning yanvar-dekabrida Andijon viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 43 790,8 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2020- yilning yanvar-dekabri bilan taqqoslaganda 4,7 % ga o'sdi.




YAHM deflyator indeksi 2020- yilning yanvar-dekabridagi narxlarga nisbatan 109,1 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Andijon viloyatining qo'shgan hisssasi 6,0 % ga yetdi.



### Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari


|   |   | Mlrd. so'm                     |                                | O'sish sur'atlari,<br>o'tgan yilning<br>mos davriga<br>nisbatan % da |
|---|---|--------------------------------|--------------------------------|--|
|   |   | 2020- yil<br>yanvar-<br>dekabr | 2021- yil<br>yanvar-<br>dekabr |  |
|   | <b>I. YAHM</b>  | <b>38 333,9</b>                | <b>43 790,8</b>                | <b>104,7</b>   |
|   | <i>shu jumladan:</i>                                  |                                |                                |  |
|  | tarmoqlarning yalpi<br>qo'shilgan qiymati             | 36 578,0                       | 42 578,9                       | 104,7  |
|  | mahsulotlarga sof soliqlar                            | 1 755,9                        | 1 211,9                        | 104,8  |
|   | <b>II. Tarmoqlarning yalpi<br/>qo'shilgan qiymati</b> | <b>36 578,0</b>                | <b>42 578,9</b>                | <b>104,7</b>   |
|  | <b>qishloq, o'rmon va<br/>baliqchilik xo'jaligi</b>   | <b>15 572,0</b>                | <b>18 418,3</b>                | <b>104,5</b>   |
|  | <b>sanoat (qurilishni<br/>qo'shgan holda)</b>         | <b>10 489,2</b>                | <b>11 299,0</b>                | <b>100,4</b>   |
|  | sanoat  | 8 435,9                        | 8 821,8                        | 98,6   |
|  | qurilish  | 2 053,3                        | 2 477,2                        | 107,9  |

|   |  | Mld. so'm                      |                                | O'sish sur'atlari,<br>o'tgan yilning<br>mos davriga<br>nisbatan % da |
|---|--|--------------------------------|--------------------------------|--|
|   |  | 2020- yil<br>yanvar-<br>dekabr | 2021- yil<br>yanvar-<br>dekabr |  |
|   | <b>xizmatlar</b>                                       | <b>10 516,8</b>                | <b>12 861,6</b>                | <b>109,4</b>   |
|  | savdo, yashash va<br>ovqatlanish bo'yicha<br>xizmatlar | 2 264,3                        | 2 816,6                        | 111,5  |
|  | tashish va saqlash,<br>axborot va aloqa                | 1 868,7                        | 2 294,4                        | 113,4  |
|  | boshqa xizmat tarmoqlari                               | 6 383,8                        | 7 750,6                        | 107,5  |

Aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 13 596,2 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 2,7 % ga yuqoridir.



#### Yanvar-dekabr oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi va o'sish sur'atlari




Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 97,2 foizini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 2,8 foizini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligining YAHMning tarmoqlar bo‘yicha tarkibidagi ulushi 43,3 % ni, sanoat tarmog‘i 20,7 % ni, qurilish 5,8 % ni va xizmatlar sohasi 30,2 % ni tashkil qildi.




**Yanvar-dekabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha  
YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)**

|   |   | 2020- yil    | 2021- yil    |
|---|---|--------------|--------------|
|   | <b>I. YAHM</b>                                    | <b>100,0</b> | <b>100,0</b> |
|   | <i>shu jumladan:</i>                              |              |              |
|    | tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati            | 95,4         | 97,2         |
|   | mahsulotlarga sof soliqlar                        | 4,6          | 2,8          |
|   | <b>II. Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati</b> | <b>100,0</b> | <b>100,0</b> |
|  | qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi          | 42,6         | 43,3         |
|   | <b>Sanoat (qurilishni qo‘shgan holda)</b>         | <b>28,7</b>  | <b>26,5</b>  |
|  | sanoat  | 23,1         | 20,7         |
|  | qurilish  | 5,6          | 5,8          |
|   | <b>xizmatlar</b>                                  | <b>28,7</b>  | <b>30,2</b>  |
|   | savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar  | 6,2          | 6,6          |
|  | tashish va saqlash, axborot va aloqa              | 5,1          | 5,4          |
|  | boshqa xizmat tarmoqlari                          | 17,4         | 18,2         |




Yanvar-dekabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha  
YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

2020- yil



2021- yil




YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 104,5 % (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 43,3 %), sanoatda – 98,6 % (20,7 %), qurilishda – 107,9 % (5,8 %), xizmatlar sohasida – 109,4 % ni (30,2 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 111,5 % (6,6 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 113,4 % (5,4 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 107,5 % dan (18,2 %) iborat bo'ldi.



**Yanvar-dekabr oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari**  
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)


20- yil ■ 2021- yil



YAHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 1,8 f.p. (2020- yilning yanvar-dekabrida – 0,6 f.p.), qurilish tarmog'i – 0,4 f.p. (2020- yilning yanvar-dekabrida – 0,4 f.p.), xizmat ko'rsatish sohasi – 2,6 f.p. (2020- yilning yanvar-dekabrida – 0,1 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi. Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAHM 0,2 f.p. (2020- yilning yanvar-dekabrida – 0,2 f.p.)ga ko'paydi.




**2021- yilning yanvar-dekabr oylarida**  
YAHM o'sishida tarmoqlarning hissasi *(jamiga nisbatan % da)*



2021- yilning yanvar-dekabrida YAHM deflyatori indeksi 2020- yilning yanvar-dekabridagi narxlarga nisbatan 109,1 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'ida - 113,2 %, qurilish va sohasida -111,8 % qayd etildi.



**Yanvar-dekabr oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi**  
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



**2020-2021- yillarning yanvar-dekabr oylarida YAHMda kichik biznesning ulushi**  
(jamiga nisbatan %da)



2021- yilning yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushi 71,8 % ni tashkil qildi (2020- yilning yanvar-dekabrida – 69,9 %).

YAHMning o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sishi yirik korxonalar ulushining kamayishi bilan izohlanadi.